

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI

Qo'chqarova Laylo Bahrom qizi

Umirzoqova Gulbahor Dostonbek qizi

Jizzax viloyati yuridik texnikum o'quvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14182240>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati hamda ularning bugungi kundagi o'zgarishlarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, fuqarolar yig'ini raisi vakolatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ini, mahalla raisi, ishonchnoma, hamjihatlik.

BODIES OF SELF-GOVERNMENT OF CITIZENS

Abstract. This article describes the activities of citizens' self-government bodies, the socio-political significance of their changes today, and the powers of the chairman of the citizens' meeting.

Key words: Self-governance, citizens' assembly, neighborhood chairman, power of attorney, solidarity.

ОРГАНЫ САМОУПРАВЛЕНИЯ ГРАЖДАН

Аннотация. В данной статье описывается деятельность органов самоуправления граждан, общественно-политическая значимость их изменений сегодня, а также полномочия председателя собрания граждан.

Ключевые слова: Самоуправление, собрание граждан, председатель района, доверенность, солидарность.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) – asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda. Uning bevosita aholi tomonidan shakllantirilib, davlatdan mustaqil holda faoliyat yuritib, o'z hududida yashab kelayotgan aholining manfaatlarini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etishi kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy talabidir.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi qariyb o'n mingga yaqin mahallalar respublikamizda amalga oshirilayotgan izchil demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga ko'maklashmoqda.

Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizning **127-moddasi**.

Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni saylaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishida ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi.

Konstitutsiyamizning mazkur 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli" ekanligi belgilandi.

Mazkur o'zgarishlarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati shundaki,

birinchidan, davlatga mazkur organlarning o'z vazifa va vakolatlarini amalga oshirishida ularning mustaqilligini ta'minlash vazifasini yuklaydi,

ikkinchidan, mahallaning siyosiy-huquqiy institut ekanligini va u o'z hududi aholisining huquq, erkinligi va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilishga safarbar etilganligini belgilaydi,

uchinchidan, mahalla o'z faoliyatini rivojlanishning o'ziga xos tarixiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar va mahalliy urf-odatlar hamda an'analarga tayanib amalga oshiradi.

Ushbu yangilikning huquqiy ahamiyati shundaki, mazkur normalar orqali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini nodavlat an'anaviy boshqaruv tizimiga ega organlar sifatida huquqiy kafolatlash, ular faoliyatiga davlat idoralari noqonuniy aralashuvining oldini olish uchun konstitutsiyaviy darajada mustahkam va barqaror huquqiy poydevor yaratiladi.

Bu kabi tajriba **Germaniya, Avstriya, Yaponiya, Shvetsiya, Daniya** kabi mamlakatlar konstitutsiyalarida mavjud.

Konstitutsiyamizda mazkur kafolatning belgilanishi esa mahallalarga o'z hududini mustaqil boshqarish, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, aholi farovonligini ta'minlashga muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Fuqarolar yig'ini raisi, o'zini o'zi boshqarish tizimida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 127-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - fuqarolar yig'ini ekanligi ular raisni saylashi belgilab qo'yilgan.

Demak, fuqarolar yig'ini raisi konstitutsiyaviy lavozim uni saylash tartibi maxsus qoidalar bilan tartibga solinadi. Fuqarolar yig'inlari va uning raislari tashkil etilib, hozirgacha bo'lgan davrda raislarning saylash tartibi va vakolat muddati bir necha marta o'zgartirildi va hozirgi qonunchilikka asosan u uch yilga fuqarolar yig'ini tomonidan saylanadi. Rais nomzodiga qo'yiladigan talablar va saylov tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qollabquvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi farmoni fuqarolar yig'ini raisining maqomini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini tubdan o'zgartirishga qaratildi.

Ularga yuklatilgan ko'plab vazifalar bekor qilindi. Rais, uning o'rinbosarlari va boshqa xodimlarni vazifa va faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, taalluqli bo'lmagan vazifalarni yuklash taqiqlanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun **23-moddasi. Fuqarolar yig'inining raisini saylash**

Fuqarolar yig'inining raisi uch yil muddatga saylanadi.

Fuqarolar yig'inining raisini saylash tartibi qonunda belgilanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun **14-modda. Fuqarolar yig'ini raisining vakolatlari**

Fuqarolar yig'inining raisi:

fuqarolar yig'inini (fuqarolar vakillarining yig'ilishini) chaqiradi;

fuqarolar yig'iniga — mas'ul kotibining, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar hamda taftish komissiyasi raislari va a'zolarining nomzodlarini, fuqarolar yig'ini kengashiga — harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimning nomzodini tasdiqlash uchun taqdim etadi;

fuqarolar yig'ini va uning organlari tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirishiga, shuningdek qarorlarni ijro etishga doir ishlarni tashkil etadi;

davlat organlarida, shu jumladan sudda, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolar yig'inining manfaatlarini ifodalaydi, fuqarolar yig'ini nomidan shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi;

fuqarolar yig'ini mablag'larini qonunchilikka muvofiq tasarruf etadi;

tegishli hududda maslahat markazlari ishini tashkil etadi;

egasiz mol-mulkni, meros tariqasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga o'tgan mol-mulkni, shuningdek davolash muassasalarida turganligi munosabati bilan vaqtincha bo'lmagan yolg'iz shaxslarning mol-mulkini, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki vasiylik va homiylikda turgan, oilaga tarbiyaga topshirilgan yetim bolalarning, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning mol-mulkini saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risida yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqida sudga ariza beradi;

kam ta'minlangan oilalarning, yetim bolalarning, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, shuningdek tabiiy ofatlardan va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan jabr ko'rgan fuqarolarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

mahalliy davlat hokimiyati organlariga yangi dafn etish joylarini barpo etish va mavjud bo'lganlarini rekonstruksiya qilish haqida takliflar kiritadi;

voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, yetim bolalar, ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organlariga taqdim etadi, shuningdek bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko'maklashadi;

tazyiq va zo'ravonlikka uchragan hamda fuqarolar yig'inlariga murojaat qilgan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni belgilaydi, shuningdek mazkur faktlar to'g'risida tegishli ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarini hamda ichki ishlar organlarini zudlik bilan xabardor qiladi;

tegishli hududda bayram kunlari va muhim sanalar bilan bog'liq ommaviy tadbirlar o'tkazilishini tashkil qiladi;

ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining, diniy qarashlarni majburan singdirish hollarining oldini olishga doir ishlarni tashkil etadi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etadi;

fuqarolar yig'ining mas'ul kotibi, harbiy hisobni yuritish bo'yicha xodimning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

fuqarolarni qabul qilishni amalga oshiradi, ularning arizalari, takliflari va shikoyatlarini ko'rib chiqadi;

fuqarolarga ularning oilaviy va mulkiy ahvoli to'g'risida ma'lumotnomalar hamda hujjatlar, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlar berilishini ta'minlaydi;

fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda tegishli davlat organlariga va boshqa korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga taqdimnomalar kiritadi;

tegishli davlat organlaridan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, moddiy madaniy meros obyektlari haqida ma'lumotlar so'raydi va oladi.

Fuqarolar yig'ining raisi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolar yig'ining raisi belgilangan namunadagi guvohnomaga ega bo'ladi. Fuqarolar yig'ini raisining guvohnomasi namunasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

15-modda. Fuqarolar yig'ining raisi tomonidan o'limni qayd etish va ishonchnomalarni tasdiqlash

Fuqarolar yig'ining raisi belgilangan tartibda o'limni qayd etishi mumkin.

Fuqarolar yig'ining raisi xat-xabarlarni, shu jumladan pul va posilkalarni olishga, ish haqini hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarni olishga, mualliflar va ixtirochilarga to'lanadigan haqlarni, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarni, shuningdek banklardan summalarni olishga ishonchnomalarni belgilangan tartibda tasdiqlashi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2023.90-B.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – 330-343-betlar.
3. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. -Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi. Harbiy-texnik instituti, 2019. 584-605-bet.
4. Маматов Х.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yuristmedia markazi, 2018. 371-391 бетлар.